kattha kuch va kattha mahorat

bilan qator asboblardan

holda foydalangan



⁴ "Qo'g'irchoq boshqarish asoslari" (Marionetka teatri). Mamatlyq qo'llantma. 2014 ITB

yelmlangan fanderdan qircish mumkin: qil arra, patna, kichkina egov, ombir va jilvir qog'oz.

"Birlashtiruvchi yog'och" qismi uchun shiplint va yuvish qurilmasi qayrima qisqichlar bilan egilgan simlardan oson tayyorlanadi.

Yassi o'yinchoqlar bezatilgan va ko'p funksiyali bo'lishi mumkinki, u dizayn ishliga katta imkoniyatlar beradi. Kartondan qirqileyan o'yinchoqlar tabiiy ko'rinishiga o'xshashini saqlashi jihatidan qog'ozda chizilganiga nishbatan muvaffaqiyatlidir.

Marionetka

Marionetkalarning bir qancha turlari ma'lum. Bu yerda yugoridan yog'och ilmoqqa mahkamlangan iplar bilan boshqariluvchi marionetka tasvirlanadi.

Rasm 1.

1. Bu yerda marionetka turg'un holatda. Uni ilgakka ham osib qo'yish orqali devor dekoratsiyasini yaratish mumkin.
2. Pastdan ipga bosim berish orqali marionetka oyoqlari harakatga keladi.
3. Ko'plab pozalarga ip va ilmoqlarning turli holatlari orqali erishish mumkin.

Rasm 2.

Marionetka.

Bu o'yinchoqni 150-600 mm va undan katta o'chovda, kanton va yigirligan ip yoki arqon yo shiplinti yelmlangan fanemi ishlatish qirqib olish mumkin. Kartonli figuralarini rangli zar qog'oz yo mato yordamida applikatsiya orqali bezash mumkin. Yog'och figuralarni esa akrl yo afisha bo'yogi bilan qilinadi.⁵

Qo'g'irchoq teatri yashar ekan, undagi aktyor hech qachon o'zining mehnat quroli, obrazning ifoda timsoli – qo'g'irchoq⁶idan ajralmaydi.

Hech kimga sir emaski, qo'g'irchoq teatri mo'jizalar makonidir. Har bir spektakl bizni ana shu manzilga bir qadar yaqinlashtiradi. Shunday ekan bu soha mutaxassislari xoh u dramaturg, rejissor, rassom, qo'g'irchoq ustasi yoki aktyor, albatta avvalo shu o'ziga

⁵ Peter Fraser. "Puppet Circus" - Boston: Plays, Inc., 1972 [12-13 бб]

toslikni unutmasisligi lozim. Buning uchun tasviriy san'at, musiqqa, undagi eng nozik ritmik ohangni ilg'ay olish, ertak va fantastikadan xinbador bo'lish bilan birga maxsus effektarni o'ylab topa oladigan qobiliyatga ega bo'lislari talab etildi. Mana shu jihatlarni qurol qilib o'z joyida ishlatish, ijodiy jamoani shakllantirish va hamkorlik ushbu muqsad asosiga qurilsa, shunday spektakllar yaratilishi mumkin-ki, hoshqa yo'naliishdag'i teatrilar ularga, albatta, havas ko'zi bilan boqadilar. Bolajonlar esa bu kabi tonosha orongohiga, "Mo'jizalar olami"⁷ga doim inflaveradilar. Axir qo'g'irchoq teatinning bosh mezoni ham shu emasmi?

REJISSORLIK TAHLILI

Mustaqil O'zbekiston sharoitida qo'g'irchoq teatinning "m'm'atkorlik, fuqarolik va ma'naviy burchi yanada oshdi. Aslari osha, yushab kelayotgan an'analarini bugungi tarixiy davr g'oyalarining muzmuni bilan boyitishga jazm etayotgan qo'g'irchoq teatrulari repertuarlariga umumiy nazar tashlasak bunga amin bo'lamiz. Shu o'rinda Prezidentimiz aygan: "Bu masalada ish olib boradigan insonlar nafaqat pedagog, psixolog yoki dizayner bo'lishi, shu bilan hoshga, tariximiz va madaniyatimizdagi ibratli qahramonlar, xulqimizning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlar, milliy qadriyatlarimiz asos qilib olimsa, maqsadga muvoffiq bo'ur edi, deb o'layman" – so'zlariga bir qadar javob ho'lganidek ijod qilmoqdalar.

Katta teatrilar bilan bir qatorda, qo'g'irchoq teatrlarimiz ham millatimiz xalq og'zaki ijodi, rivoyat va dostonlari asosida xilma-xil lozibali spektakllar yaratdilar. Respublika qo'g'irchoq teatrida qo'yilgan «Qano'ti odamlari» (Nozim To'lxo'jayev kinossenariysi nsosida yozilgan insenirovka, rejissor Bekpo'lal Parmonov, rassom Bobur Ismoilov), Farg'on'a qo'g'irchoq teatrida salmalashirilgan «Alponish» (Jo'ra Mahmud asari, rejissor Shomurod Yusupov, rassom Veniamin Akudin) spektakllari buyuk xalq eposidagi eng muhim nuqtalarini-Alponishning vatanga cheksiz muhabbatini, jasoratini, clining sodiq farzandi ekranligini o'z ifoda vositalari bilan taramum etdilar.

Ijodiy rejjalarni belgilashda esa, har ikki yilda bir marotaba o'lkazib kelinayotgan O'zbekiston qo'g'irchoq teatrlarining an'naviy

ko'rik festivali, shuningdek, Respublika miqyosida yosh iste'doddarni kashf etish maqsadida «Debyut – yosh rejissori»ning an'anaviy ko'rik-festivallar turki bo'imorda. Bu esa, madaniyat sohasida kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda qo'shilayotgan katta xissa desak mubolog'a bo'lmaydi. Mamlakatimizda yoshlarimizga Davlat siyosati darajasida yuksak e'tabor, qaratilishi natijasida o'tkazilayotgan festivallarda yosh ijodkorlar – aktyorlar, rejissorlar, dramaturg'lardan kashf etilmoqda. Bu esa o'z navbatida yangi jamoa, ijodga yangicha, zamonaviy nigoҳ va albatta yangi spektakllar degani.

Spektaklini sahnalashirish – bu juda murakkab jarayon bo'lib, ijodiy kollektivdan bu vaziyatda bir tanu-bir jon bo'ib mehnat qilishni talab etadi. Spektaklning taqdirlini belgilovich bu jarayon, jamoadan farqli rejissordan o'ziga yarasha ijod, mehnat va mashaqqatni taqazo etadi. Chunki rejissor, aktyor, rassom va kompozitor, pyesani tahlil qilib, undagi muallif filkiga, joyiz bo'lsa, o'zgartirish va qo'shimchalarini kiritishga harakat qiladilar. Barcha bildirilgan taklif va maslahatlar hammasi pyesani sahnalashirishda rejissorga to'g'ri, aniq yechimini topish imkonini berish yo'lida xizmat qilmog'i kerak.

Spektakl obrazlarini yaratishda, uni oldindan ko'ra bilihsda rejissor nimalgara e'tibor berishi kerak? Nimalar unga yordam beradi-yu, nimalar esa aksincha? Spektakl haqidagi birinchi filr tug'ilishidan boshlab, uni amalga oshirunguga qadar bo'ladi. Jarayon rejissorda qanday kechadi? Bu yerda repetitsiya jarayoni emas, balki rejissor filklarining repetitsiyagacha bo'lgan psixologik yetilishi, spektakni ko'ra olishi nazarda tutilmoxda. Ba'zi rejissorlar spektakl yaratishidagi dastlabki jarayonga yengil-yelpi, shunchaki qaraydilar va o'zlarining shaxsiy laboratoriyalarini tartibga solishga kirishnaydilar.

Ko'pincha pyesa o'qib bo'limishi bilan, rejissor bo'lg'usi spektakl yechimini oldindan ko'z oldiga keltiradi va shu bilan to'xtalib qoladi, bu huiddi aktyoring boshdanoq natijani o'ymaganidek gapdir. Rejissor oldindan ko'ra bilishgacha, bir qator vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi kerak-ki, bu faqat tasavvurgina emas, balki asarga obrazli yondashish bo'isini. Rejissura sintetik san'at, u musiqa, rassomlik, adabiyot, arxitektura kabi san'at turлari bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir qadamda chambarchas munosabatdadir. Shu bilan birga, bu yondoshuv rejissoring professionallik darajasini namoyon

etdi. Ya'ni, u yaratgan san'at asarini ko'rgan tomoshabin teatr ulumishmo'jizaviy olamga kelganiga afsuslanmasligi kerak.

Bugun zamonaviy teatrularni boshqarish vazifasi rejissor zhinnasiga yuklatilgan. Bu haqida o'zingiz uzoq yillik pedagogik mulkasiga tayanib, ulug' ustozlar maktabini amaliyotda qo'llash mutjalilaridan keilib chiqib rejissoring o'ziga xos nazarli jihatlarini yozgan R.Usmurov shunday deydi: "Rejissor spektaklning batcha elementlarini o'z qo'sida ushlab turgan holda aktyor ijodini birinchi o'ringa qo'yib, boshqa elementlarni uning atrofida garnomon ravishda birlashtirsa butunlikka erishadi. Bu o'rinda rejissor – tashkilotchi mutloq hukmrondir." Undan birgina yaxshi aktyorlar ansamblini tuzish, janri yo'nalishini belgilash, spektaklning baduy qimmatini, b'oyasini aniqlash talab etiladi. Shuningdek texnik guruhni hoshqarishni, ya'ni chiroqlar, dekoratsiya, libos va turli texnik hodimlar guruhlarining ishini tartibga solish mahorati ham talab etiladi.

Barcha bildirilgan hisslatlar mijassamlashib, rejissor xarakterini namoyon etadi. Endi undan bir asar yaratishda o'ziga xoslik, ya'ni rejissorlik pocherki kutiladi. Bu esa ma'lum va vaqtini, malakan va albutta timmsiz mehnat mahsuli bo'l mish iste'dodni talab qilinadi. Bir rejissorni boshqasidan o'z talqini, yechimi va yondoshuvni bilan surqinradi.

Rejissor talqini nima va u qanday bo'ladi? Hamma ish pyesa tunlashdan boshlanadi. Albattra, asar g'oyasi, rejissor va u bilan birga iqlayotgan ijodiy jamaoa uchun yaqin va qiziqarli bo'lishi kerak. Pycsa rejissor fantaziyasini to'qinlantirib, ummondek, g'oyalar oqimini olib kelsa, tasavvur uyg'otsa, hayotda ko'rgan kechirganlarini eslatsa va bu murakkab psixologik jarayon qadamma-qadam, ba'zida esa yashindek bo'lib, dramaturg filr va g'oyalarini obrazli talqiniga olib kelsa, bu pyesa, albatta, sahna hayotiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, rejissor talqini – bu rejissor tasavvuri, fantaziysi, rejissoring ko'fishi, muallif g'oyalarini obrazli talqin qilinishi va bu talqinni qaysi usulda sahnaga olib chiqishidir. Avvalo, rejissor pyesani qo'liga olar ekan, bir yaxlit spektakning g'oyasi, o'zining rejissorlik yechimini aniqlamog'i lozim. Buning uchun u bu yaxlitlikni turli sahna handa parchalarga bo'lib, olnog'i va ana shular ichidan spektaklning bosh g'oyasini topib olishi kerak bo'ladi. Shuni ham aytilib o'tish kerakki, asosiy g'oya ifodalangan bo'ladi.

parcha sahma asarining maqsadini tomoshabinga yetkazib beruvchi bosh omil hisoblanadi. Biroq, bu qolgan salmlalarga bepisand ishluritsa bo'ldi, degan filkrdan mutloq yiroqmiz. Har bir sahma yoki parcha o'z o'mida spektaklda mavjud qonumiylatlarga amal qilingan holda ish yuritildi. Asosiy g'oya, ifodalangan parchaga e'tiborni chuoqroq qaratish bilan birga unutmastlik lozimki, ana shu vaziyatni boshqa parcha va 'bo'laklar rivojlanitrib olib keladi, kerak bo'lsa yakunlaydi. Rejissor u yoki bu obrazni xarakterini ochib berish uchun tarli xatti-harakatlardan, har xil vositalardan foydalangan holda ifodalaydi. Shuningdek, ba'zi salmlarda obraz yoki personajning ichki imotsiyalarini ko'rsatish maqsadida turli texnik vositalar, chiroq, tutun, turi shovqin va tovushlarni ko'chaytirish kabilardan foydalaniши mumkin. Spektaklda ishtirok etuvchi obraz yoki personajlarning to'qnashuvu qarama-qarshilikni keltirib chiqardi. O'z navbatida ularning domiy munosabatidagi to'qnashuvular esa spektakning rivojanishiga va ma'lum bir nuqtada uning kulminatsiyasini aks etishiga sabab bo'ladi. Bu kabi masalalarni, hal qilishda, ya'ni har qaysisi rejissorda g'oyalarni obrazli talqin qilish turicha kechadi.

Buguk qurvonch va dahshatlari nafrat-bu ikki tuyg'u ijodkor sifatida dramaturg va rejissor tabiatini mutanosiblashtiruvchi omildir. Lekin dramaturg talqini odatda aksariyat hollarda rejissor talqinidan o'z o'mida farq qiladi. Bu farq shundaki, dramaturg asarlarida hayotda real voqealiklar asosida ko'rgan-kechirganlarini, o'z hayotiy tajribalari asosida, yoki eshitiganlari, kuzatganlarini namoyon qiladi. Rejissor talqini esa, shu pyesa o'qilganidan so'ng, tug'ilgan fikr, g'oya, tuyg'uni obrazlarning sahnayiy ifodasi demakdir.

Rejissor asarni ilk bor qo'lliga olib, o'qiy boshlaganda e'tibori jihatli shundaki, u avvalo mualif fikriga xayrixoh bo'lmog'i lozimligi ta'kidlanadi. Buning uchun rejissordan oddiy kitobxon bo'lishi talab etiladi. Dramaturg obrazlarga zamon talabi, qarashlari, mayjud ijtimoiy hayotga o'z qarashi va minnosabatini ishtirokchilar hayoti orqali aks etirishiga intiladi. Aynan mana shu kabi qator boshqa munosabatlar sabab rejissoring talqiniy tahli qilish jarayoni vujudga keladi. Aynan shu bir so'z bilan jorlanishdan, o'ta murakkab, timmsiz izlanish va albatta samarali mehnat talab etiladi. Zero, shundagina asar qahramonlarini holis kuzatish imkonini tug'iladi. Bu esa o'z navbatida obrazlarning xarakterini aniqlashda, ularni voqeа bo'lib o'tayotgan

va makonda, berilgan shart-sharoitda ichki kechinnimalari, duchu batto asarda aks ettilmagan, o'z navbatida yozilmagan o'yinayollarini kashif etish imkonini beradi.

Dramatik teatrarda, rejissor aktyor bilan ishlashda mayda illor-chikirlargacha stol atrofidagi tahli etish (chitka) vaqtida bir yoki parchalarni ustida ijod qilish davrida yanada aniqliklar kiritilib, to'ldirilin, kechima ijo talablarini darajasiga yetgunga qadar qayta va qayta ishlaniadi. Jarayoning bunday cho'zilishiga rejissor va aktyor qayla ishlaniadi. Jarayoning bunday cho'zilishiga rejissor va aktyor o'russida paydo bo'luvchi turli to'siq va kelishmnochiliklar ham sabab ho'ladi. Bunday holatlar vujudga kelganda ularni bartaraf etish yo'llari va omillari haqidagi ustozlarimiz J.Mahmudov va J.Mahmudovalarning hammlalligida ko'p yillik tajribalariga tuyunib yaratilgan "Rejissura asosları" darsligida atroficha to'xtalib o'iligan. Shu bilan birga obraz ustida ishlash jarayonida rejissor va aktiyor ijodiy hamkorligida uchrashni mumkin bo'lgan holatlarga rejissor qanday yondoshmog'i lozim kabi masalalarga turilcha ko'rsatma va tavsiyalar aniq misollarda ifodalanigan. Masalan: aktyor o'zi yaratishi kerak bo'lgan obrazni qaysi bir sahnasida to'xtalib, kechishning turli tuman yechimlari ko'rsatilgan.

Ijodiy davom ettira olmay qolsa, fantaziya va tasavvuri mutloq shunday misollardan aktyor doim biron bir ob'yeqt bilan holat qaytariladi. Ijodiy siqiqlik vujudga keladi. Buning sababi, aktyor sahnada bo'lish jarayonida uning uzluksiz o'ziga qaratib turadigan manbaning yo'qligidir. Ijodiy jarayonning eng katta to'siqlaridan biri ana shunda. Goho, shu kichik to'siqning olib tashlanishi bilan ijodiy jarayon boshlaniib ketadi. Bunda rejissor, aktyor – timsol kinga quoq solishi, niman ni ko'rishi, kinga qarata gapirishimi, yo'l-yo'lakay aytilib yuborishi ham aktiorming ichki ijodiy fakiliyatini joranlanib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Ba'zan aktyor qarasli Stanislavskiy aytganidek, rejissor talqini, rejissor taassurotdan katta farq qiladi.

Taassurot – bu o'qilgan asarga berilgan yuzaki bahodir. Talgın va tasavvur esa, pyesaning mukammal analizi, rejissorning professionali mahorasi va qobiliyatiga bog'liq natija. Bularning hammasi dramatik, musiqali va qo'g'irchoq teatrлari uchun bir xilda tegishli.

Gap qo'g'irchoq teatrлaridagi spektakl talqini haqidada borar ekan, uning bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligiga to'xtalish lozim. Spektakl sahnalashtirishga tayyorlanayotgan rejissor, quyidagilarga amal qilmas ekan, spektakl talab darajasida chiqmaydi. Bu xususiyatlar nimallardan iborat?

-Birinchi xususiyati.: Jonsiz qo'g'irchoqing jonlanish xususiyati bo'lib, u qo'g'irchoq teatri fabiatini belgilaydi. Qo'g'irchoq teatrda faqat qo'g'irchoqlar emas, balki har qanday predmet ham jomlonishi mumkin. Aynan shu jarayon noreal tuyg'uni qalban tuyishga sabab bo'lsin. Bunda mutlaqo hayotda uchramaydigan, to'g'ridan to'g'ri tasavvur olamini ishlatsihsa majburlovchi, natijada vogelinika real hayotda bo'layotgan kabi kishilarни ishonitsin. Spektakl voqeaları, qanday makonda, qanday zamonda kechishidan qat'iy nazar, undagi ishtiroychilarning qanday ko'rinishga ega ekanligi muhim emas, balki, bular insoniy til orqali ifodalangan uchun ham ishonchli bo'lmog'i lozim. Spetsifik jihatdan eng asosiyisi, rejissor oldiga qo'yildagan talab shuksi, bu jarayon – jonlanishdan rohatlanadigan bo'lsin.

-Ikkinchi xususiyati. Muallif g'oyasining badiy ifodasi bo'lgan mahoratidan ham ustun qo'yishdadir.

Shu xususiyatlar, Yevgeniy Sergeyevich Demmeni qo'g'irchoq teatrda faoliyatini ijodida muجاجamlashgan edi. Demmeni qo'g'irchoq teatri uchun professional dramaturgiya asarlарini yaratishga bel bog'lagan birinchi rejissor hisoblanadi. Uning bevosita boshchiligi va yordamida klassik pyesalar qo'g'irchoq teatri uchun qayta yaratilgan.

Demmeni Leningrad qo'g'irchoq teatrda faoliyat yuritgan. U bilan birga atrofdagi malakali rassom, haykaltarosh va kompozitorlar qo'g'irchoq teatri san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Ye.S.Demmeni repetisiya jarayoniiga qadar spektaklini o'z tasavvurida sahnalashtirar va shu talqunga asoslanib rassom, qo'g'irchoq ustasi, konstruktur va kompozitorlarga aniq vazifalarni yulkardi. Ulardan asarni jarangdor, personajlarning xarakterlari va harakatish konstruksiyasi beqiyos bo'lismi, talab etardi.

Yr. S. Demmeni repetisiyaga, aktyorlar oldiga pishiq rejissor dasturi, tuyyor dekoratsiya va musiqa bilan kelardi.

Aktyorlar bilan ishlash jarayonida Demmeni mezanssenalarni intqash, ko'rsatish va o'zi ishlab chiqqan dastur asosida, faoliyat yurqizishga harakat qilgan. Bundan tashqari, u aktyorlarga matn yod olish, oyna odida qo'g'irchoq harakatini mukammal ishlash bilan huj'liq uy vazifalarini topshirardi.

Demmeni birinchi bo'lib, qo'g'irchoq teatrda musiqani, yonecalarni aks ettiruvchi emas, balki, ishtirok etuvchilar harakatini lo'ldiruvchi ranglar jilosi sifatida berishga harakat kilgan va erishgan. Qo'g'irchoq teatrda o'zining betakror rejissorlik qobiliyatini himoyish qilgan yana bir san'atkor Moskvadagi «Markaziy qo'g'irchoq teatr» direktori vazifasida ishlagan S. V. Obrazsovdir. U qipckatlda ishtirok etuvchi barcha ijodkorlarning fantaziya va hisuvvururini uyg'otishni o'zining asosiy vazifasi deb bilardi. Ijrochilar shuqtgina qo'g'irchoq, dekoratsiya, shirma, obraz haqida emas, balki yuritishlarini istardi. Obrazsovning fikricha, qo'g'irchoq teatiri nom'atida ishlash – bu hayotni sevish, oddiy narsada g'ayrioddiy narsalarni ko'ra bilish, bu narsalardan hayajonga kelish, odamlarga ulurning o'zları haqida bilmaydigan tononlarini aytma olish, yangilik yurutish, kasifiyot qilish demakdir.

O'z o'rniда, aktyor ham rejissor nigohiga ega bo'lishi lozim. Dramatik aktyorlarga bu nigoh o'zlariga chetdan tanqidiy qaratshga imkon hersa, qo'g'irchoqhoz aktyorga esa, hu borada ancha qulay. Chunki, ular bu nigoh bilan, o'z qo'g'irchoqlarini diqqat doiralarida kuzatish va barcha holatlarda ko'rish imkoniyatiga egadirlar. Lekin, hu aktyorlarga qo'g'irchoq va rol ustida ishlashda rejissorlik huquqini beradi, degan gap emas.

Shunday qilib, rejissoring muhim vazifasi – spektakl xuhnalashtirishdir. Spektakl yuzaga kelishi uchun u bir qancha qobiliyat elementlariga ega bo'lishi lozim. Spektakl sahma yuzimi ko'rishi uchun butun ijodiy jamoa ma'suldir. Shunday ekan, rejissor bir tomonдан spektakl yaratish, texnologiyasini, ikkinchi tomonдан esa, jamoada ijodiy tashkilotchilikni yaxshi olib horishi kerak. "Rejissoring vazifasi faqat pyesani to'g'ri o'rganish, to'g'ri tulqin qilish, rollarni to'g'ri taqsimlash va aktyorlar bilan to'g'ri ishlash emas. Teatrdan ijodiy jarayonni tashkil etish uchun u teatrdagi

boshqa ijodkorlar bilan ham hamkorlikda ishlash bilishi kerak, ularning ijodini o'z ijodiga, oly maqsadiga bo'y sundirishi kerak. Bu sohadan rejissor diktator (hukmron) bo'lishi ham yaramaydi. Diktatorlik ijodkorlar tashabbusini so'ndiradi. Shuning uchun u rassom, kompozitor, grimyor, kastyumer va boshqa teatr ijodkorlari bilan hamkorlikda bo'lishi kerak. Aks holda teatr san'ati inqiroza yuz tutadi."

Rejissoring spektakl ustida ishlash , jarayonini shartli ravishda 4 bosqichga bo'lish mumkin:

1. Pyesa ustida ishlash, (rejissorlik tahlii);
2. Qo'g'irchoq eszizlari va dekoratsiya tanlovi,(rassom va qo'g'irchoq ustasi bilan ishlash);
3. Aktyorlar bilan stol atrofida ishlash, (chitka va shirmada bo'laklarga bo'lil ishlash);
4. Spektakl montajи jarayoni, (musiqa va chiroq bilan ishlash);

Har bir zamonaqav rejisoringning oly maqsadi jamiyat oldida turgan, ko'philkni qiziqtirgan va hozirgi davrdagi muhim masalalarga ijodiy nuqtai nazar bilan yondoshishdir.

Rejissor – mualif g'oya va fikrining interpretatoridir. Pyesada bermay, mualifning takrorlanmas ijodini o'chib bermasa, hech qanday teatr takrorlanmasa, san'at asarini yaratma olmaydi. Bu majburiyatlar zamonaqav va klassik dramaturgiyaga bir xilda tegishlidir. Chunki, har ikki asar ham xoh u zamoraviy, xon u klassik bo'lsin, bugungi kun g'oyalar talqiniga, bugungi kun iyo ustubiga, xullas zamonining tababariga javob berishi kerak.

Rejissor pyesani zamoraviy uslubda, ya'mi bugungi kunga mos formada talqin qilgandagina klassik dramaturgiya o'z kuchi va jozibasini yo'qotmaydi. Qanday qilib bundan bir necha asr iltagi yozilgan pyesani bugungi hayotga, bugungi kun muammolariga hamohang qilish mumkin? Spektakl va zamon o'rtaisdagi ko'priku huddi shu oly maqsaddadir. Oly maqsad bizga teatr devorlarini surib qo'yib, pyesani zamon ko'zi bilan ko'rish imkoniyatini beradi. Ammo, pyesani o'qib chiqish bilangina, uning oly maqsadini aniqlab bo'lmaydi. Buning uchun zamoni, odamlarini yaxshi bilishi zarur. Faqat bilihsigina emas, balki qalban his qilish ham shart. Chunki, Oly maqsad-spektakl temperamentini belgilaydi.

Oly maqsadi aniq bo'lgan ijodkor o'z fikrlari va g'oyalari uchun yonib kurashha oladigan, ularni dalillar asosida isbothay oladigan ho'lishi kerak. U sevish va nafratlanishni, nima go'zal va nima xunuk okamligini bilishi, hayajonlanish va achinish tuyg'ularini o'zida aks otimi olgandagini pyesada o'ziga tortuvchi kuch, yangi fikr va j'oyalarini topishi mumkin.

O'ziga xos xsusiyatlar, teatrlarning bir-birdan farqlanishi haqida jup borganda, albatta so'zning o'ziga xos ishlatilish uslubiga lo'xtalish lozim. Bu o'rinda ustozlarning fikriga e'tibor qaratilsak. "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasi dotsenti M.Ashurova shunday deydi: " Qo'g'irchoq teatrida so'zning tug'ilishi, boshqa teatr san'ati turlaridan farq qiladi. Bu teatrdi so'z drama, musiqli drama, estrada lemlaridek eng mulhim hisoblanmaydi. Sahnada qo'g'irchoq personajini quncha kam gapirsa, uning sahnada yashashi shuncha qiziqarli h'sirchan bo'ladi. Qo'g'irchoq tabiatiga ko'ra, sahnada turib ko'p yupirishga, uzundan uzun monologlar ayitisiga mo'jallassanmag'an. Uning tashqi holati ham buni ko'tara olmaydi.

Shuning uchun ko'pincha qo'g'irchoq teatri rejissorlari, bolalar drumaturgllariga nurojaat qilganda , qo'g'irchoq teatri uchun yoziladigan pyesalarida harakati ko'p bo'lib, so'z kamroq bo'lsin, deyishadi. Buning mhabbi qo'g'irchoq sahnadan turib o'zi aytishi mumkin bo'lgan ko'pgina dil izhorlarini o'z plastik harakati orqali aytish imkoniga ega bo'ladi. Agar biz drama, musiqli drama, estradadan so'zni olib tushlasak, bu teatrlar o'z yuzlarini yo'qotgan hisoblanadi yoki bu imonihora «charakab» teatriga aylanib qoladi."

Bordi-yu qo'g'irchoq teatridan so'zni olib tashlasak ham, u hech narsa yo'qotmaydi. Aksinchacha plastik harakat evaziga uning xsusiyatiga ko'ra qo'g'irchoq teatri bo'lib qolaveradi. Bu haqida M.M.Korolyov shunday deydi: "Qo'g'irchoq teatri uchun so'z ikkita nimbabga ko'ra assiy vosita hisoblanadi. Birinchisi, aktyor bilan qo'g'irchoqning asosisiga halqaqt bermaydigan har qanday vosita unga hegonra emas. Ikkinchidan, insonlar orasidagi munosabat vositasi bo'lgan so'z, qo'g'irchoq teatrin boyitadi. Shuning uchun, undan voz kechishiga hech qanday sabab yo'q" Bunday ko'rimadiki, bildirilgan likrdan kelib chiqqan holda so'z qo'g'irchoq teatri uchun ham kerak bo'lgan munosabat vositasi hisoblanar ekan deb aytish mumkin. Ammo qo'g'irchoq teatrida so'zning o'z o'mida me'yor darajasi

bo'lmog'i kerak. Ya'ni, o'z navbatida qo'g'irchoqlar aktyorga qanday so'zni ishlatishi lozimligini berilgan shart-sharoitidan kelib chiqib, partnyor va munosabatlarni e'tiborga olgan holda obrazni xarakteriga monand ishlatishni, ko'rsatib turuvchi vositadir.

Demak, qo'g'irchoq boshqarayotgan aktyor uning shu xususiyatlarini inobatga olgan holda ovoz va so'z xarakteristikasini topmog'i talab etiladi. Ko'rindik, qo'g'irchoq teatrda so'z ishlatilishi tabiy bir zarurat emas, balki sun'iy ravishda tug'ilishiga olib keladi.

Yana qo'g'irchoq teatri uchun pyesa tanlash muammosiga qaysak. O'zbek, rus va jahon qo'g'irchoq teatrлari allaqachon ifrik komediylar, parodiylar va satirk spektakllar salnalahtirish mumkin ekanligini isbotladi. Lekin, ko'pgina qo'g'irchoq teatrlari salnada dramatik va tragik asarlarga munrojaat etishga ikkilanadilar. Ye.V.Speranskiy so'zi bilan aytganda: "Qo'g'irchoqlar tomoshabin qalbini lartzaga sola oладими, ularda faqtgina kulg'u yoshlarini emas, balki yurak yoshlarini 'ham oqiza oladimi?'" Ha, albatta, qo'g'irchoq teatrlarining janr tanlash chegarasi beqiyos. Uning bag'ridan ulug'venlik va xazit-mutoyibaga, kinoyayu-kulguga hamisha joy bermalol topiladi.

SPEKTAKLNING MUHITI (ATMOSFERA)

Jumladan, O'zbekiston davlat San'at va Madaniyat instituti «Qo'g'irchoq teatri san'ati» kafedrasi ustoz-murabbiyari va talabalarini o'quv mashg'ulotlari jarayonida turi janillardagi pyesalarga murojat etadilar. Masalan: Toir Islomovning «Landovur Bo'ri» pyesasi ertak janrida yozilgan bo'lib, unda yaxshilik yomonlik ustidan doimo g'alaba qozonadi degen g'oya ilgari surilgan. Pyesaga singdirilgan bu g'oya, yosh tomoshabin qalbida ezzgulik, adolat, haqiqat kabi tuyg'ularning shakllanishiga, keng yo'l ochib beradi. Yomonlik, baxillik, firibgarlik,aldoqchilik kabi illarlardan qochish, ulardan nafsatlanish hissini tarbiyalaydi.

Anatoliy Qobulovning «Ochko'z Xasan qissasi yoki sehri kiyko nomli pyesasi esa, tragik ertak janrida yozilgan. Uning bosh g'oyasi, odamiylikni ulug'lashdir. Bolalar bu ertakni tomosha qilganlardan so'ng boylikka xirs qo'ygan, mol-davlat ketidan quvgan odamning ahvoli voy bo'lishini tushunib yetadilar.

Hajiy jaorda yozilgan Davron Soburovning «Yo'ldosh otaning quruzashlar» nomli pyesasiida murosasizlik g'oyasi aks ettiladi. Hunda ko'ngil xohishlari va nafs ixtiyoriga o'zini mutloq topshirib qo'yagan Yo'ldosh ota, asar so'ngiga kelib, har joyning ham o'z tosh-hovizi bor ekanligini, hamma yaltiragan narsa ham oltin ho'livvermasligini anglab yetadi. Bu spektakl yosh avlodini vilumparvarlik ruhida tarbiyalashga, qalblarida shukronalik hislarini wyl' otishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan har uchala pyesa, institut O'quv teatrida mitoz va talabalar tomonidan sahnalahtirildi, hamda tomoshabinlar oloqishiga sazovor bo'ldi. Bu, albatta, birinchchi navbatda rejissoring muvaffaqiyatidir. Chunki, rejissor 'bulg'usi spektakl uchun pyesa linlib olingandan so'ng, uni 'butun jamoa bilan o'qib chiqadi. A'muring mavzusi, janri, g'oyasi, undagi qarama-qarshiilik, yetakchi xutti-harakat va oly maqsadni aniqlaydi. So'ngra rassom bilan qo'g'irchoq eskizlari ustida ishlash jarayoni boshsanadi. Rejissor bulg'usi spektaklining rassomi bilan uchrashganda o'zining pyesa hincidagi fikr mulohazalari, pyesa talqini va tasavvuri haqida o'riqlashadi. Va ular birgalikda umumiy yechimga, umumiy muqsadga kelganlardan keyin, bo'lg'usi spektakl qo'g'irchoqlarini, xarakterlari va ko'rinishlari qanday bo'lishini maslahatlaslib, personaj ularning shakliy ko'rinishi, dekoratsiyalar xususida bir mitatida keladilar. Yo'qsa, rejissoring yuksak darajadagi asar talqini xulosaga keladilar. Yelpi qarashlari bilan chippaka chiqishi iussomming yengil – yelpi qarashlari bilan chippaka chiqishi mumkin. Rassom qo'g'irchoq teatrda ham huddi dramatik icatlaridagidek sahnaviy kenglik, sahnaviy multit, qahramonlarning xarakterlari, tashqi ko'rinishlari xususida ish olib borishi kerak.

Spektakl qahramonlari rassom fantaziyasi mahsuli bo'lib, u rejissor talqimini chueqr anglagandagina haqqoniy obrazlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuni alohiida ta'kidlash lozimki, rassom, mualif bilan rejissoring g'oyalarini qo'g'irchoq obraziga aylantruvchi shaxs mayda masalalar bo'yicha maslahatlashadi. Chunki, shu masalalar spektakl yaxlitligini, sahnaviy ko'rkamligini ta'minlaydi. Zero, rassom qo'g'ozdag'i bo'lg'usi qo'g'irchoq – obrazlar xarakterini pyesa talqinidagi xarakterlarga mos tushirishi lozim. Shuni nazarda tutish



lozimki, ko'pincha eskiz yaxshii ishlanganani bilan, tayyor qo'g'irchoq ijrochi tasavvur qilgan obraz – qo'g'irchoqdan farq qiladi. Bunday holda nima qilish kerak?

Agar shunday hol yuz beradigan bo'lsa, biz qo'g'irchoqni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishimiz va eng mulimi uni yaxshi ko'rishimiz lozim. Ayniqsa, aktyor uchun qo'g'irchoq obrazi bilan birinchisi uchrashuv juda muhim ahamiyat kash etadi. Agar, aktyor qo'g'irchoq ustasi yasagan qo'g'irchoqni qabul qila olmasa, kelishmnovchilik yuz berishi mumkin, ya'ni ular yonna-yon bo'salar ham, bir-birlarini tushunmaysilar, bir-birlariga halal beradilar. Bu esa, qo'g'irchoq teatriddagi qo'g'irchoqlarning jonlamasi ligiga va tonosha ta'sirining surayishiga olib ketadi. Qo'g'irchoq qandaydir kameliikkarga ega bo'lsa ham, aktyor uning ijobiy tononlarini ko'ra olishi va shu orqali uni sevishi lozim. Fantaziya va tasavvurni ishg'a solib, u shunday shart-sharoit topishi lozimki, qo'g'irchoq bu sharoitda qanday harakat qilmasin, uni boshqarayotgan aktyor shu harakatlarini yaxshii ko'rib qolishi kerak. O'z navbatida, sahnalashchituvchi rejissor ham ijrochini aynan shu qo'g'irchoq spektakl g'oyasiga har tononlama mos kelishiga ishonira olishi kerak.

S. V. Obrazsov aktyorlarga tayyor qo'g'irchoqni uyya olib ketib, u nimalar qila olishini, ko'rishni va shu bilan birga yangi harakatlar o'ylab topishni takif etardi. U bu borada, oyna oldidagi mashqolar yaxshi natija beradi, deb hisoblardi.

Teatrdi, repetitsiya jarayonida, aktyor o'z qo'g'irchog'ini stulning suyanchig'iga, kresloga o'topazib, stol yonda, shirmada mashqlar qilayotganini kuzatish mumkin. Bunda u qo'g'irchog'ining plastik harakatlarini o'rganayotgan bo'ladi. Agar, aktyorlar qo'g'irchoqni ustaxonada o'zları yassasalar, ish yanada oson kechadi. Chunki, ish jarayonida u o'z qo'g'irchog'ining harakat imkoniyatlarini, aktyor sifatidagi qobiliyatini, plastikasini o'rGANADI, uni o'z farzandidek ardoqlaydi. Qo'g'irchoq xarakteri va biografiyasini bo'lgandan keyin, har bir roling oly maqsadi va yetakchi xatti-harakati aniqlanadi.

«Oh bu Xo'ja Nasridam»

Voege va berilgan shart-sharoit

Bu borada, Ye. Tarkovskiyning S.V.Obrazsov teatri salmasida qo'yilgan va ko'philikkä ma'hum bo'lgan «Cho'rtan balik amri bilan» spektaklining ish jarayoniga to'xtamoqchimiz.

Spektakldagi asosiy qahramonlardan biri, Nesmeyana obrazidir. Uning xohishii va oly maqsadi saroydagi zerikari, doim bir zayilda davrom etib kelayotgan, joniqa tegib ketgan hayotdan qutilish. Pyesa davomidagi barcha xatti-harakatlari ham shundan dalolat berib turadi. M'lak boshida u o'zining tajang xulq-atvori, tinmay yig'lashi bilan hayotidan, turmush tarzidagi noroziligini bildiradi. Ko'zlaridagi yoshi esn, tornchilab emas, chelaklab quyiadi. U hamma narsadan-topilgan kuyovlardan, o'yin-kulgurlardan va hattolci, ovqatdan ham voz kechadi. Qishloq chekkasida yashowchi Emelyaning saroyiga kelishi spektaklining markaziy voqeasi bo'lib, holat va harakat temporitmini tubdan o'zgartirib, personajlarning xarakterini yanada yorqin ochilishiga xizmat qiladi.

Bu sahnada Emelyanining g'ayritabiyy kirib kelishiga Nesmeyana avval hayratlanib qaraydi. Sababi shundaki, u saroy esigidan ichkariga o'z oyogqlari bilan emas, balki pechka ustiga ot minganday o'tirib olib kelishi malikan qiziqitrib qo'yadi. Yemelya asarda saroy qonularini sariqchaqaga olmaydigan, ulardan xayiqmaydigan, oddiy bir inson sifatida namoyon bo'ladi. CHunki, u saroy ichki tartib qoidalarin bilmas, hatto oddiy lavozimlar o'rtasidagi farqni ham anglamaydi. O'z navbatida uning bu xarakteridagi g'ayritabiyylik va soddalik malikan e'tiborini tortadi. Nesmeyana sekin – asta Emelyani o'zi xohlagan odam ekanligini, faqat u bilangina qurmoq va qiziqarli hayot kechira olishi, mumkinligini tushunadi. Shunday qilib, malika Nesmeyananing yetakchi xatt-i-harskati endi o'z baxti uchun kurashishi va Emelya bilan birga ketishdan iborat.

Shuni ta'kidlash lozimki, spektakl yaratishda har bir personajning faqat o'z gagina xos harakat chizig'i mayjud bo'ladi. Bunda uning o'z xarakteri, ovozi, yurish-turishi kabililar nazarida tutilmoga. Albatta olyi maqsadini ham, ya'ni o'zining individual olyi maqsadi haqidagi gap boradi. Bu esa har bir sahnada o'ziga xos berilgan shart-sharoit bilan bog'liq ko'rinishida bo'ladi. Aytilish lozimki, aynan personajlardagi ana shu o'ziga xoslik va olyi maqsadlar to'qnashuvii, voqealar limiyasini tashkil etilishiga sabab bo'luchchi unsur vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, har bir ijrochi o'z roldagi asosiy voqeani o'zi topishi va unga o'zi nom qo'yishi mumkin.

Masalan: Nesmeyana personajidagi bir necha asosiy voqealarini sanab o'tamiz:

- I. Nesmeyananing noroziligi
- II. Nesmeyana kuyovlarni rad etadi
- III. Emelyanining pechka ustida kelishi
- IV. Nesmeyana kulib yuboradi
- V. Emelya bilan birga
- VI. Yangi do'star, yangi hayot

Bulardan tashqari, qo'shimcha materiallar xususida ham o'ylab ko'rish lozim. Jumladan, janr masalasi. Pyesa qaysi janriga dahidor? U dramatikmi, kamediymeni, tragediyami, vahokazo. Avvalo janr aniqlanmas ekan, spektakl ruhiyati va ifoda vositalari ham, mayjud muammomi hal qilish ususli ham anglashilmaydi. Oqibatda na spektakl tushunari bo'ladi, shuning barobarida o'zining tomoshayligini ham yo'qtotadi. Natiyada rejissoring aytnoqchi ko'rsata olmaydi".

Har qanday san'at turining vazifasi insoniyatga estetik zavq beruvchi asar yaratishdir. Bunga erishgan har bir san'atkor o'zining g'oyasini ham tomoshabin qalbiga yetkaza biladi.

bo'lgan filcri, g'oyasi mavhum bo'lib, qolib ketaveradi. Shularni e'tiborga olib rejissor bu jarayonda o'ta mas'uliyatli va xushyor bo'lmog'i lozim. Ana shu kabи jiddiy e'tibor talab etuvchi jihatlaridan zamон, ya'ni voqealar qaysi davrga taaluqli ekani masalasidir. Chunki, voqeа qaysi zamonga taaluqli ekani bilmagan rejissor spektakl voqealarini sahnalaشتirish qomuniyatlariga tayariб aks ettirishga ming harakat etmasin, tomoshabin nigoхida ishonchiga noqulay vaziyatlarini qorishish ham yuqoridaq kabi. Masalan: bir millatning ikkinchi millatdan bir qarashdagи farqlari yoki buning aksi bo'shini yurish-turishi bilan bog'liq, yashash tarzi yoki boshqa jihatlaridagi deyarli farqlannmasa-da, ammo unutmastik kerakki, ukarning o'ziga xos urf odatlari hor. Qaysiki, astilar mobaynida shakllangan va ayni paytda ajaratish imkonini beradi.

Rejissoriarni o'qitish jarayonida bularni, albatta, bilishi kerakligi aytildi. Shunga qaramay bo'lg'usi rejissorlar tasviriy san'atni, teatr san'ati tarixini va umuman tarixidan bo'imoqlari lozim. Bu esa o'z naybatida yuqorida ta'kidlangan kabi kanchiliklarni chetlab imkonini beradi. Atoqli rejissoriniz Shuhrat Abbasov aytganidek: "Bu kabi bilimlarga ega bo'lmay turib, rejissor yaxshii tomosha



ko'rsata olmaydi".

Har qanday san'at turining vazifasi insoniyatga estetik zavq beruvchi asar yaratishdir. Bunga erishgan har bir san'atkor o'zining g'oyasini ham tomoshabin qalbiga yetkaza biladi.

Yuqorida biz to'xtalgan masalalarni bilish jumladan qo'g'irchoq teatri rejissorga ham hosdir.

Biz tahlil qilayotgan pyesa ertak janrida yozilgani uchun ijrochi rus xalq ertaklarini o'qib chiqishi, rus ertaklari asosida olingan kinofilmerni ko'rishi, o'sha zamon munhitini his qilishi kerak. Ertak qahramonlari liboslariga e'tiborini qaratishi, kerak bo'lsa o'z qo'g'irchoq'i liboslariga o'zgartirishlar va ba'zi detallar kiritishi mumkin.

Bu esa, har bir ijodkorning o'z fantaziyasi va tasavvuriga bog'liq. Shu bilan birga bu unsurlar aktyoring rol ustida ishlashida, chalg'imaslikka va dunyoqarashining kengayishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Rol ustida ishlash jarayonida ijrochi avvalambor berilgan shart-sharoitni, voqeа sodir bo'ladijan joy va vaqtini, voqeа sodir bo'lishiga bo'lgan sababini o'rGANIB chiqishi zarur. Bu esa xattisharakatning to'g'ri yo'nalihsinga, maqsadni to'g'ri yo'naltirilishiga sababchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Biz tahlil etayotgan pyessamizdag'i berilgan shart-sharoit o'mon, u yerdag'i sokinlic.

Nesmeyana va yonida uning yori Emely. Bunday sharoit Nesmeyanani tinch va xotirjam etadi. Biroq, o'monda havo salqin. Issiq satoyga o'rgangan malika sovuqdan qaltilaydi. Shu payt ularning oldiga Yemelyanining do'stlari — o'mon hayvonlari tashrif buyuradilar. Nesmeyanaga atrofini o'rab turgan hamma narsa qiziqlari bo'lib ko'rindi va endi u sira yig'lagisi kelmaydi. U endi ismini ham o'zgartirib, Nesmeyana emas, balki Masha deb aytadi.

U Yemelyanining onasi bilan tanishadi. Masha bu yerdan o'zini juda yaxshi va erkin his qiladi. Salom yangi hayot, salom yangi do'star, salom sevgi!

Qo'yilayotgan pyesa qanchalik qiziqarli bo'lmasisin, rejissoring spektakl talqini qanchalik yuksak darajada bo'lishiغا qaramay, rassom ijodining mahsuli — qo'g'irchoq qanchalik original chiqrnasin, shularning barchasini sahnaga olib chiqish, tomoshabinga havola etish aktyor qo'lidadir.

«Qo'lda» so'zini to'g'ri va tom ma'noda tushinish mumkin. Ya'ni, aktyor haqiqatdan ham mualif g'oyasi, rejissor talqinini qo'g'irchoq orqali tomoshabinga havola etuvchi vositachi hisoblanadi. Shuningdek, aktyor qo'g'irchoq teatrida o'z qo'llari bilan jonsiz predmetga, ya ni qo'g'irchoqqa go'yoki jon bag'ishlaydi. Ayvalo gap qaysi yo'nalihsidagi teatr xususida ketmasin, uning bosh ifodachisi aktyordir. Buyuk rejissor va pedogog Vladimir Ivanovich Nemerovich -Danchenko shunday deb yozgan edi: «Juda hashamatli bino qurib, uni zamonaviy yoritgich va isitigichlar bilan ta'mirlab, malakali rassom va orkestrni taklif etib, ishbilarmon administrator va direktori shisha jaib etgan taqdirda ham, bu teatr teatr bo'lmaydi. Mana biror shahar jijozaqan va ta'mirlangan bino bo'lib qoladi. Mana biror shahar maydoniga ikki aktiyor kelib, yerga gilamcha soldilar va o'z mahoratlarni, ijrolarini namoyish eta boshladilar — ana endi bu tomosha haqiqiy teatr tomoshasidir».


Rejissoring aktyor bilan ishlash jarayonini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. Aktyor va pyesa ustida qo'g'irchoqlar tayyor bo'lgunga qadar stol atrofidagi ish jarayoni (chitka);

2. Qo'g'irchoqlar aktyor qo'liga yetib kelgandan keyingi shirmadagi ish jarayoni. Birinchi bosqichda pyesa aktiyorlar bilan o'qib chiqiladi. Bunda pyesaning jamri, mualif g'oyasi va ishistroki personajlarning har biri analiz qilinadi. Rejissor o'zining pyesa talqini bilan aktyorlarni tanishiradi. Obrazlarning plastik yechimi, pyesa haqidagi tanqidiy, tabiiiy muloxazalar muhokama qilinadi. Bunda har bir so'zning kerak bo'lsa tag ma'nolari kashif etiladi. Undagi maqsad va vazifalar aniqlanadi.

Pyesa o'qib bo'lingandan so'ng, rejissor rollarni bo'llib bergunga qadar, jamoada umumiy emotsiyonal muhokama qilinadi. Bunda har shularning barchasini sahnaga olib chiqish, tomoshabinga havola etish aktyor qo'lidadir.

Pyesa o'qib bo'lingandan so'ng, rejissor rollarni bo'llib bergunga qadar, jamoada umumiy emotsiyonal muhokama qilinadi. Bunda har shularning barchasini sahnaga olib chiqish, tomoshabinga havola etish aktyor qo'lidadir.



lozim. Eng ahamiyatli joyi shundaki, rejissor avvalo aktyorlarga asar g'oyasini to'g'ri yetkazib bermog'i shart. Chunki, har bir personaj ijrochisi o'z vazifasini aniq harakatlarini ko'ra olsa-yu, ammuni bosha g'oyaga xizmat ettira olmasa, rejissor aymoqchi bo'lgan fikr mayhum bo'lib qoladi. Natijada aktyorlar jirosi yo shunchakki mexanik harakatlar yig'indisi, yo har biri alohida parchalardan iborat shunchakki ko'rinishlar bo'lib qolaveradi.

Rejissor spektakl talqinini bayon etar ekan, bu talqin hammani o'ziga tortishi, qiziqitrib qo'yishga erishishi kerak. Har bir aktyor shu talqin asosida o'z obrazimini uning o'ziga xos jihatlarini ko'rsin va tasavvur qila olsin.

Qo'g'irchoq tayyor bo'lgandan keyingi jarayon sahna maydonchasiiga ko'chadi. Bu yerda mezzansenna aniqlanadi va personajlarning harakat yo'malishlarini belgilanadi. Qo'g'irchoq teatrida sahna vazifasini shirma bajaradi, demak, keyingi repetitsiya jarayoni shirmaga ko'chadi. Shirmadagi repetitsiya jarayoni, teatrda ijodiy jamoanining individual qobiliyatni ochib beradi.

Aynan shu jarayon, aktyorlarda qo'g'irchoqlar xatti-harakati bilan bog'si q'zing taklif va mulohazalarini bildirish imkonini tug'diradi. Bu takliflar esa, o'z navbatida rejissor bilan muhokama qilinadi va albatta bir to'xtamga keltingach sahnada quriladi.

Sahnadagi birinchi vazifa - mezzansahnalarni aniqlashdir. Mezzansahna - bu spektaklda ishtirot etuvchi obrazlarning sahnadagi dekoratsiya, jihozlar va o'zaro joylashuvdirid. Mezzansahnalar har doim rolining olly maqsadidan, ichki holatidan va sahnaviy munosabatlardan kelib chiqadigan xatti-harakatlarda aks etadi. Mezzanssenalarni sahnada chuquq ma'noli, ta'sirchan, aniq bo'lishiغا alohida ahamiyat beriladi. Mezzansenna aktyorning ichki holatini uyg'otuvchi va uni obraz olamiga yetaklab kiruvchi, qalbini harakatga keltiruvchi kuchiga ega. Bunday ta'sirchan hayotiy va xaqsoniy mezzansahna namunalarini hamma vaqt hayotining o'zidan yoki tasviriy san'at namunalarini va adabiyotlardan izlanadi, kasif eriladi. Shu bois ham, har qanday rejissor va aktyor doimo hayotga, tasviriy san'atga, adabiyotga murojaat qilishiga majbur.

Mezzansahnalar hayotiy, xaqsoniy, o'z navbatida ritnik faol bo'lmog'i kerak. Bu xususiyat faqat yuqori malakali va madaniyatiy rejissorlar hamda aktyorlardagi bo'lishi kuzatilgan.

Qo'g'irchoq teatri spektakkilarni musicasiz tasavvur etish mushkul. Musiqi doim spektakl bilan birga bo'lib, ko'p hollarda tomoshaning asl mag'zi, qalb ko'zini ochib beradi. Bu fikrlar qo'g'irchoq 'balet', konserit nomerlari va musiqiy pantomima kabi qo'g'irchoq teatri janrlariga birdekk tashhuqli. Masalan: D.Soburovning "Yo'Idosh ota sarguzashtlari" pyesasidagi har bir salma aynan musiqi va shovqinlar orqali joniqlik kasb etadi. Spektakl uch sahna va to'rt ko'rinishdan iborat. Barcha voqealar Yo'Idosh otanining tushida kechadi. Birinchi sahna "Yo'Idosh otanining hovlisi", ikkinchisi "Yapon xonadomi", uchinchisi "Afrikalik bir qabila" va yana "Yo'Idosh otanining hovlisi". Spektaklda asosiy ishtirotchilar niqoblarda o'z obrazlarini ijro etganlar. Faqat kuchuk obrazni planshet qo'g'irchoq bo'lib, u barcha sahnalarni va voqealarni bo'lib o'tishiga sababchi suyak, uning sehri xususiyati haqida o'z xo'jayiniga aytishi bilan boshlandi. Ayvalo kuchukni insonga xos gapirisini Yo'Idosh otani sarosimaga soladi. O'z qo'rquvini yengib eshitiganlardan hayratlangan chol, endi boshqqa mamlakatflarga borishni hoxjab qoladi. Kuchug aytg'an "voy" sehrli so'z, makondan makonga o'tishiga sabab bo'ladi. Bir ko'rinishdan boshqasiga o'tish chog'ida, yoki shu sahnada kechayotgan voqealarni ko'rsatishda musiqi va chiroqlarni o'z o'mida o'ta mahoratli ishiltilishi, tomoshavylikni ta'minlagan va tomoshabinda tabiiy ishonish tuyg'usini shakllantiradi. Bunda musiciy va shovqin bezaklar, chiroq o'yinlari yuqoridaqgi fikrlarimizing isboti o'laroq, obrazning ichki va tashqi ta'siri, kechinnalarini ochishiga ko'maklashgan. Bunda boshqqa dramatik teatrlardagi kabi obrazni holatini aks ettirishga xizmat qiluvchi aktyor mimikasidan foydalananilmi iloji si yo'q. Bu vazifalarni bajarish qo'g'irchoq teatrida musiqaga yuklatiladi. Albatta qo'g'irchoqni boshqarish texnikasi qoidasiga muvoffiq harakat bajarilsada, unga chiroqlarning maxsus o'yinlari qo'shilsada, baribir asosiy "yuk" musiqaga va shovqin bezaklari zimmasiда qoladi.

Spektakl tomoshabinga hech bir go'sha o'z uyi, tug'ilib o'sgan maskani, aziz bo'lib qolgan Vatani o'rnini bosa olmasligini o'rgatadi. Bu kabi misollarni, ya'ni misiqani, qo'g'irchoq teatri spetsifikasidagi ahamiyati haqida ko'plab misollarni aytish mumkin. Qisqasi har qanday jaondag'i qo'g'irchoq tomoshalarida musiqi ishtirot etishi shart. Gap shundakki, obrazlarni ichki holati, kechinnalarini va berilgan shart-shareoitning haqqoniyligini ifodalashda

qo'g'irchoq teatrida aktyorning mimikasi o'mini to'ldiruvchi ko'makchi vazifasini misiqä, shovqin va chiroqlar bajaradi.

QO'G'IRCHOQ TEATRIDA ETIKA

Agar qo'g'irchoq teatri ilidzlariga nazar tashlasak, turli xalq qo'g'irchoq teatrular o'z tomoshalarini hilma-xil ravishda, turli xil milliy asboblar ko'magida amalga oshinganlar. Masalan: ruslar sharmanka, garmon bilan, o'zbeklar esa doira, nog'ora, karnay, sunnay kabi misiqiy asboblar jo'rligida olib borganliklarini guvohi bo'lismiz. Bu, tomoshaning jozibador bo'lishimi ta'minlaydi.

1930-1940-yillarda misiqä ishtirokida qo'yilgan quyidagi pyesa mazmuniga e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

Petrushka – rus xalq qo'g'irchoq teatri qahramoni sahnaga chiqadi, xalq bilan salomlashadi, turli mavzularda gaplashadi. Shundan so'ng misiqachiga o'zining uylanish niyati borligini va munosib kelin topganini ma'lum qiladi. Misiqachi undan kelin haqida so'raydi. So'ng u ham o'z navbatida huddiki Petrushka aytgan manzilga borib, kelinni ko'rib, u bilan masalaga oydinlik kiritib keladi. Taklifa ko'ra kelin keladi. Sahnaga dumboqqina, ikki yuzi qizil kelin chiqib keladi. Petrushka bulg'usi kelinni maqtaydi. Misiqachi esa, undan kamchiliklar qidirib Petrushkaning jahlini chiqaradi. Petrushka misiqachiga -«Musiqangni chal, uning o'y Nashini tomosha qily»-deydi. Keling-kuyov raqsiga tushib ketadilar. So'ng Petrushka kelinni uyiga kuzatib qo'yadi.

Bunday sahma ko'rinishlari qisqa bo'lganligi uchun undagi raqs va qo'shiq kupletlari ham qisqa bo'lishi kerak, aks holda bu spektaklning umumiy ritmini burizib qo'yadi.

“O'zbek milliy qo'g'irchoq teatr”lari ham misiqä, raqs va qo'shiqqa boy hisoblanadi. Sunnaychi, doirachi, nog'orachi kabi misiqachilar aktyor bilan birga harakatda bo'lib, hatto ko'rinish ishtirokchilari bilan ham muloqotga kirishadilar.

Masalan: 1950-yillarda Buxoroda o'ynalgan kichik salma ko'rinishini e'tiboringizga havola etishimiz mumkin. Bu ko'rinishining nomi «Offobxon va Mohtobxon»dir.

Korfarmon – tomossa olib boruvchi, ikki dugona, raqqosa Offobxon va Mohtobxonlarni o'rta ga qo'rqmasdan chiqqingilar o'yinab berинглар deb chaqirdi. Ikki qo'g'irchoq, ya'ni Offobxon va

Mohtobxon chiqib kelishadi. Mohtobxon qo'llari bilan boshini ushlab olgan. Offobxon Mohtobxonga qarab: «Tezroq tuzilib qol, Mohtobxon, o'ynaymiz, osh yeymiz»-deydi. Mohtobxon esa o'z qo'llari bilan boshini ezib: «Bismillo, bu mani qo'llim emas, avlyioning qo'lli»-deydi. Offobxon «Avlyioing kim edi»-deb so'raydi. «Kurkurikarrolo»-deb javob beradi Mohtobxon. Korfarmon chapak choladi. Qizlar raqsiga tushadilar. Nog'orachi ko'rinish davomida ularga jo'r bo'lib turadi.

Musiqani bu qo'g'irchoq teatri uchun yoki boshqa janrdagi teatr uchun deb ajratish mushkul. Spektakldagi misiqiy yechim, shu spektakl uslubi yoki janridan, rejissor va kompozotoring dunoqzarashidan kelib chiqib tanlanadi. Albatta, misiqä spektakldagi tasviriy yechim bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Qo'g'irchoq teatrda fantastik va lirk kuylar, ovozlar, shovqinlar tanlanadi. Bu misiqiy jilo esa, o'z navoatida sahnadagi ranglar jilosi bilan uyg'ulashishi lozim.

Yugoroda rejissorlik kasbi, uning qo'g'irchoq teatriddagi roli, rejissoring spektakl yaratishdagi asosiy vazifalari, spektakl analizi hamda teatring boshqä ijodkorlari bilan ijodiy hamkorlik haqida to'xtalib o'tishga mumkin qadar harakat qildik.

Qo'g'irchoq teatriming bosib o'tgan uzoq ijodiy yo'liga nazar tashlasak, shunga amin bo'lamizki, hamma spektakllar ham barcha yoshdaga tomoshabinlarga birdekk maroqli bo'lgan emas. CHunki, ular yoshidagi nisbiylik, olamni tanishda tubdan farqlanadi. Besh yoshli bolaga qiziq ko'rинган holat, o'n yoshli bolaga oddiy, zerikarli bo'lishi tabiiy holat. Bu farqlanishni har qanday nisbiylikda, ya'ni yoshilar nisbatida kuzatishimiz mumkin. BUNDAN ko'rindadi, qo'g'irchoq teatri rejissori bolalar psixologiyasini ham yaxshi farqlay bilmog'i kerak. Zero, 3 – 4 yoshgacha bo'lgan bolalarga “Qizil qalpoqcha” spektaklini ko'rsatish ham yaramas ekan. Sabab, deyilik bordi-yi shu yoshidagi bolaning ko'z o'ngida bo'ri qizaloq va burivisini yeb qo'yan sahma ko'rsatilsa, bu ular uchun kattalarga Otello Dezdemonani bo'g'ib o'ldirgandan-da, dahshatlroq ta'sir etadi. Kaitalar buni spektaklning bir sahnasi ekanini anglasalar-da, ko'zlariga yosh oladilar. Endi bola spektaklini hayot deb qabul qilar ekan, ular dahshatdan yig'labgina qolmay, balki dod solishlari ehitmoldan yiroq emas. Guyohi bo'lganiningizdek, bu yoshdagilar uchun o'ta qiziq deb sanalgan bunday spektakllarning hato bir

sahnesi, bolani tuzatib bo'lmas psixologik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunday yoshdag'i bolalar uchun ayni payda S.Obrassov teatrda sahnalashirilgan "Uch Aylqchalar" deb nomlangan spektakl kabilar ayni muddaodir. Bu aylqchalar spektaklining boshidani to yakuniga qader turli kundalik bolalarcha oyinlar-u, ularga xos arzimas shumliklarni ko'rsatadilar. Biroq, unda birov boshqasini shunchaki yeb qoymaydi. Garchi biroz shum bo'lsalar-da, amm o'milaridan turib yuz-qo'llarini-yu, tishlarini tozalaydilar va turli gymnastika mashqlarini bajaradilar va hokazo. Ayni payda bu kabi ishlarni aylqchalar bir-biriga turli shumliklar bilan bajarsalar-da, bu sainmalar jippi tomoshabinga faqat yengil kulguni taqdirm etadi. Nihoyat, bolajonlar aylqchalarla taqlid qilib arzimas sho'xliklar bilan tozalash, badan tarbiya qilish kabilarini ixtiyoriy bajaradilar. Bundan ko'tinadiki, demak, qo'g'irchoq teatrining rejissorlari shunchaki bir pyesani sahnalashirishni emas, balki avvalo uni qanday yoshdagilar va nima uchun? ekanligini aniqlab olmoqlari darkor. Ana shu jihatda rejissorga qanday ifoda vositalarini qo'llash kerakligini ariq ajratishda, ularga kuchliroq ta'sir eta olish kabi noyob qobiliyatlarini kashf etishiga ilhom beradi.

O'zbek xalq ertagi asosida sahnalashirilgan "Zumrad va Qimma" spektaklini 8-10 yoshilardagi ko'rsatish mumkin. Garchi, unda ham biroz qo'rqinchli sahnalari bo'lsada, bu ham eng oliv maqsad, tarbiya uchun xizmat qiladi. Zumradning xokisorligi, rahmdilligi, mehnatakashligi, qushlar va hayvonlarga mehrbonligi ko'rsatilar ekan, o'z naybatida buning evaziga albatta munosib taqdirlanish borligini ugdiradi. Aksinchala, Qimmatning aks illatli xarakteri, qo'olligi, ish yoqmasligi, ta'maginligi, erka ,tantiqligi jazolanishini ko'rsatadi.

